

**HOZIRGI O'ZBEK NASRIDA XALQ MAQOLLARINING AHAMIYATI
("KECHA VA KUNDUZ" ASARI MISOLIDA)**

*Xudoyberdiyeva Gulnoza,
TerDUPI 2-bosqich magistranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi adabiy muhitda, ya'ni aynan nasr janrida maqollarni qo'llashning o'ziga xos ahamiyati borasida fikr yuritiladi. Qayd etib o'tish lozimki, badiiy asarlarda maqollarning muallif tomonidan qo'llanilishi nafaqaf badiiy asar mazmunini yuksaltiradi, balki asarning kitobxonlar orasida yanada ta'sirchanlik ruhini singdirishga sabab bo'ladi. Maqolada Abdulhamid Cho'lponning "Kecha va kunduz" asarida qo'llanilgan maqollar asos qilib olindi.

Kalit so'zlar: maqollar, ta'sirchanlik, badiiy ruh, maqollarning ahamiyati, "Kecha va kunduz", ruhiyat.

ЗНАЧЕНИЕ ПОСЛОВИЦ В СОВРЕМЕННЫХ УЗБЕКСКИХ ПОСЛОВИЦАХ (НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ "НОЧЬ И ДЕНЬ")

*Худойбердиева Гулноза,
аспирант ТерДУПИ 2 ступени*

Абстрактный. В данной статье рассматривается особое значение использования пословиц в современной литературной среде, а именно в прозаическом жанре. Следует отметить, что использование автором пословиц в литературных произведениях не только усиливает содержание литературного произведения, но и делает произведение более впечатляющим среди читателей. Статья основана на пословицах, использованных в произведении Абдулхамида Чолпона «День и ночь».

Ключевые слова: пословицы, выразительность, художественный дух, значение пословиц, «ночь и день», одухотворенность.

THE SIGNIFICANCE OF PROVERBS IN MODERN UZBEK PROVERBS (IN THE EXAMPLE OF THE WORK "NIGHT AND DAY")

*Khudoyberdiyeva Gulnoza,
TerDUPI 2nd graduate student*

Abstract. This article discusses the specific importance of using proverbs in the current literary environment, namely in the prose genre. It should be noted that the author's use of proverbs in literary works not only enhances the content of the literary

work, but also makes the work more impressive among readers. The article is based on proverbs used in Abdulhamid Cholpon's "Night and Day".

Keywords: proverbs, expressiveness, artistic spirit, significance of proverbs, "Night and day", spirituality.

Badiiy asarning qay tarzda aks ettirilishi muallif tomonidan asarda qo`llanilgan qator badiiy elementlarga hamda ularning ta`sirchanlik xususiyatlariga bog`liq hisoblanadi, ta`kidlash o`rinliki, mahorat bilan qo`llanilgan har bir badiiy vosita asar ruhining kitobxonga yanada ta`sirchan ifodalanishiga yordam beradi. Biz tadqiq etmoqchi bo`lgan ushbu maqolada hozirgi o`zbek nasrida xalq maqollarining qo`llanilishi hamda ularning badiiy asardagi o`rni Abdulhamid Cho`lponning “Kecha va kunduz” asari orqali yoritib berilgan.

Badiiy asarlarda voqelik talabiga ko`ra maqollarni qo`llash asarning mazmundorlik ko`lamini yanada oshirish bilan birgalikda ulardagi mohiyatning yanada to`la-to`kis ochib berilishiga ham xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Sababi, ulardagi tugallik, qisqalik hamda lo`ndalik asar voqeliklariga uyg`undorlik baxsh etadi. Hozirgi o`zbek nasrida faol qo`llanilayotgan xalq og`zaki ijodining go`zal namunalari hisoblanmish maqollar badiiy vosita sifatida asarlarimizdan qat`iy o`rin egalladi, jumladan, Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” asarida qo`llanilgan “*Sut bilan kirgan jon bilan chiqar[17]*” maqoli, Abdulla Qahhorning “So`ngan vulqon” asaridan o`rin olgan “*Yer tephanni – el tepadi[17]*” maqoli asar voqeliklariga mutanosib holda qo`llanilib, xalq hayot tarzinining yoinki kundalik turmushining naqadar oydinlashuviga xizmat qiladi. Shuningdek, jadid adabiyotining yirik namoyandasini sanalmish Abdulhamid Cho`lpon o`zining “Kecha va kunduz” romanida ham yozuvchi mahorati o`laroq ko`plab maqollarni qo`llagan bo`lib, asarning tub zamirini ushbu maqollar orqali anglash kitobxon uchun muammo tug`dirmaydi.

“Kecha va kunduz” romani uchun tanlab olingan epigraf ham maqol tarzida ifodalangan: “*Hamal keldi – amal keldi[9]*”. Asarda ushbu maqolning ifodalanishidan maqsad bor, bu o`rinda hamal ifodasi asarning bosh qahramoni Zebiga nisbatan qo`llanilgan. Bilamizki, hamal – quyosh yiliga muvofiq yilning boshlanuvchi birinchi oyi sanaladi. Ushbu vaqtida ona tabiat qishki mudroq uyqusidan uyg`onib, jonlana boshlaydi, yerga ham ishlov berish jarayonlari boshlanib, tabiat va inson o`rtasidagi munosabatlar qaytadan “ishga tushadi”. Mana shu holatning asardagi bosh personaj Zebiga qiyoslanishi ham majoziy ma`noga ega bo`lib, buning zamirida Zebining gulday umri, bahorday ochilishiga nisbat berish holati mavjud.

“*Uyqu – umrning tanobi[13]*” maqoli ham asardan o`rin olgan bo`lib, ushbu maqolda uyquning tanobga o`xshatilishidan maqsad shundaki, bunda muallif uyqu inson umrini qisqartiruvchi omil sifatida qayd etadi, ya`ni kishi umri, aslida, qisqa,

biroq ana shu umrni tanobdek o`tkazuvchi jihat bu uyqu sanaladi. Wikipedia online lug`atida ushbu leksemaga quyidagicha ta`rif beriladi:

- I. *Yer o`lchash, uzunlik o`lchash, chiziq tortish va shu kabilarda ishlatiladigan uzun chilvir, reja, ip.*
- II. *Umuman, ingichka arqon, chilvir yoki kanop ip, Rishta.*
- III. *O`rta Osiyo xonliklarida tomonlari 60 gazdan iborat bo`lgan maydonga teng yuza(yer) o`lchov birligi.*
- IV. *XVII asrda qo`llanilgan 39.9 metrga teng o`lchov birligi[16].*

Ushbu so`zning biz uchun taalluqli bo`lgan ma`nosi to`rtinchini ma`no hisoblanib, muallif umrning shu tarzda tezlikda o`tib ketishiga qiyos maqsadida ushbu maqolni asarda aks ettiradi.

Bundan tashqari, asarda din bilan bog`liq holdagi maqollar ham o`zining yaqqol ifodasini topgan, xususan, o`zbek xalq maqollarida namoyon bo`lgan “**Kambag`al – xudoymning suygan bandasi**” maqoli asar mazmuniga bog`liq holatda qo`llanilgan. Aytish lozimki, asardagi ushbu maqol Islom dini ta`limotidagi Hadislarda ham o`zining yorqin ifodasini topgan: “Faqirlik dunyoga mashaqqat, oxiratda xursandchilikdir”[17].

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, badiiy asarlarda maqollarni asar mazmuniga mutanosib holatda qo`llash asarning badiiy ahamiyatini yanada oshiradi. Abdulhamid Cho`lponning “Kecha va kunduz” romanida qo`llanilgan maqollar ham asar mohiyatidan kelib chiqqan holda qo`llanilgan bo`lib, ularning ma`nosi asardagi har bir detalga, har bir voqelikka, har bir jarayonga mutanosib holatdadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Бердиёров Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиологик луғати. -Т. : Ўқитувчи, 1984.
2. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. -Т., 2002
3. Жўраева Б. Ўзбек халқ мақолларининг қисқача синонимик луғати. –Т.: ФАН, 2006.
4. Искандарова Ш.М. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш (шахс микромайдони): ДДА. -Тошкент, 1999.
5. Куронов Д. Ва б. Адабиётшунослик луғати.-Т.: Академнашр, 2010.
6. Миртожиев М. Ўзбек тилидаги феъл валентликлари. -Т.: Университет, 2007.
7. Неъматов Ҳ. Ўзбек тили ва адабиёти /Ўзбек тилшунослигига формал, структурал ва субстансиал йўналишлар хусусида. №4, 2009. 38-б.
8. Нурмонов А. Структур тилшунослик: илдизлари ва йўналишлари. - Андижон, 2006.
9. Расулов Р. Ўзбек тилидаги ҳолат феъллари ва уларнинг облигатор валентликлари. -Т.: Фан, 1989.

10. Раҳматуллаев Ш. Нутқимиз кўрки. Т., 1970.
11. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. -Т., 2010.
12. Рустамов А. Сўз хусусида сўз. -Т., 1987.
13. Садриддинова М. Лексика узбекских пословитс и поговорок. АҚД. – Ташкент, 1985.
14. www.wikipedia.org
15. www.hozir.org
16. www.dinametr.uz
17. www.google.com